

AFFIKSATSIYA USULIDA YASALGAN OKKAZIONALIZMLAR

*Qurbanova Moxinur Abdusoli qizi
Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Affiksatsiya bu so'z yasalishining eng faol usullaridan biridir. O'zbek tilida so'zlar asosan ana shu usulda yasaladi. Okkazionalizmlar nutqiy hodisa bo'lganligi sababli uning yasalishi ham muallif tomonidan erkin tanlanadi. Maqolada okkazionalizmlarning affiksatsiya usulida yasalishi, bu borada jahon va o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlar, yechimini topmagan masalalar bo'yicha fikr yuritiladi. Maqolada qiyosiy, komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tayanch so'z va iboralar: So'z yasalishi, okkazionalizmlar, suffiks okkazionalizmlar, prefiks okkazionalizmlar, prefiks-suffiks okkazionalizmlar, lisoniy andoza, analogiya, affiks, semantik shart-sharoit, grammatik shart-sharoit.

ОККАЗИОНАЛИЗМЫ СДЕЛАННЫЕ С МЕТОДОМ АФФИКСАЦИИ

*Курбанова Мохинур Абдусоли кизи
Преподаватель Ферганского государственного университета*

Аннотация: Аффиксация является одним из наиболее активных способов словообразования. В узбекском языке слова образуются в основном таким образом. Поскольку окказионализмы являются речевым явлением, то и их создание автором является произвольным. В статье рассматриваются создание окказионализмов методом аффиксации, исследования, проведенные в этом отношении в мировом и узбекском языкознании, и нерешенные вопросы. В статье использованы методы сравнительного, компонентного анализа.

Основные слова и словосочетания: Словообразование, окказионализмы, суффиксальные окказионализмы, префиксальные окказионализмы, префиксно-суффиксальные окказионализмы, языковая модель, аналогия, аффикс, семантические условия, грамматические условия.

OCCASIONALISMS MADE BY THE AFFICTION METHOD

*Kurbanova Moinur Abdusoli kizi
Teacher of Fergana State University*

Abstract: Affixation is one of the most active ways of word formation. In the Uzbek language, words are formed mainly in this way. Since occasionalisms are a speech phenomenon, their creation is also freely chosen by the author. The article discusses the creation of occasionalisms by the affixation method, researches conducted in this regard in world and Uzbek linguistics, and unsolved issues. Comparative, component analysis methods are used in the article.

Basic words and phrases: Word formation, occasionalisms, suffix occasionalisms, prefix occasionalisms, prefix-suffix occasionalisms, linguistic pattern, analogy, affix, semantic conditions, grammatical conditions.

Kirish. So'z yasalishi tilshunoslikning eng faol va o'zgaruvchan sathlaridan biridir. Bu sath bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Ma'lumki, okkazionalizmlar nutqiy birlik hisoblanib, rus tilshunosligida bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilgan. A.V.Gorelkina M.Svetayevoy va A.Belogoning memuar asarlarida qo'llangan so'z yasovchi okkazionalizmlar yuzasidan ish olib boradi. So'z yasovchi okkazional qo'shimchalarni 1) suffiks okkazionalizmlar; 2) prefiks okkazionalizmlar; 3) prefiks-suffiks okkazionalizmlar kabi turlarga ajratadi[1]. Ye.S.Stepashkina ham okkazionallarning yasalishiga oid o'z tadqiqot ishini olib borgan

[2]. O‘zbek tilshunosligida esa S.Toshaliyevaning “O‘zbek tilida okkazional so‘z yasalishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi okkazional so‘zlarning yasalishiga oid ilk monografik ishdir [3]. G‘ayriodatiy so‘zlar asosan tildagi barqaror (uzual) yoki tasodifiy (okkazional) andozalarga, ayon bir so‘z tarkiblanishiga o‘xshatib olish yo‘li bilan yaratiladi. Lekin o‘z lisoniy andozasi, namunasiga xos umumiy, doimiy mezonlardan chetga chiqadi: nimasi bilandir ularga o‘xshamaydi – analogiyaning tabiiy lisoniy amal qilish tarzi, morfem bog‘lashuvi (valentligi) me’yori buziladi [3.14].

Adabiyotlar sharhi. Affiksatsiya bu so‘z yasalishining eng faol usullaridan biridir. O‘zbek tilida so‘zlar asosan ana shu usulda yasaladi. Okkazionalizmlar nutqiy hodisa bo‘lganligi sababli uning yasalishi ham muallif tomonidan erkin tanlanadi. O.To‘xtasinova tadqiqotlarida okkazionalizmlarni so‘z turkumlariga mansubligi jihatdan ot okkazionalizmlar, sifat okkazionalizmlar, fe’l okkazionalizmlar va ravish okkazionalizmlar kabi turlarga ajratadi ”[4.79].

Biz milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotidagi affiksatsiya usuli bilan yasalgan okkazionalizmlarni tahlilga tortamiz. So‘z yasovchi affikslar asosga qo‘silib, shaxs, narsa, joy, belgi, harakat-holat kabi ma’nolarni ifodalaydi. Dastlab ot okkazionalizmlarning yasalishida affikslarning o‘rnini ko‘ramiz.

Jumladan, -iston qo‘sishmchasi ma’lum bir millat ma’nosini ifodalovchi so‘zga qo‘silib, ana shu millat yashaydigan hududni ifodalovchi so‘zni hosil qiladi: O‘zbekiston, Hindiston kabi.

Bu jahliston eliga va’zlar kor etmagay, faryod,
 Bu sangin dillari tepkular ozor etmagay, faryod,
 Bu osiyo sangin ustida turpo ketmagay, faryod,
 Bu ko‘histon dilini kafhi xobi bitmagay, faryod,
 Yotar doim farog‘atda na nanggu or g‘or etmaz.
 (Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 1-jild)

Ijodkor jahliston so‘zini – “jaholat ostida qolgan el, ilmsizlik, ma’rifatsizlik botqog‘iga botgan yurt” ma’nosida qo‘llagan.

Bu mavhistonda bermas ibrat-u samar, hayhot,
 Hama yo‘l ko‘rsatuchilar tama’chi, darbadar, hayhot.

Fitrat mavhiston so‘zi orqali “egallangan hudud” (bosib olingan joy) ma’nosini ifodalagan. Shu o‘rinda asosdagи so‘zning ko‘pligi ma’noasini ham ifodalaydi.

Oh, mozoriston – ming - ming nomuntazam tepachalar sado nidodin xoli maxsus zamini ma’volar (boshipana, makon). (Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Oq yolpog‘ichli chinli xotun” hikoyasi)

Shu qadari borki, shaharg‘a muttasil yerlarda bog‘-u tokistonlar etib, tufroq imoratlarg‘a o‘ltirgonlari-da ko‘rilur”. (Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”) Behbudiy tokzor ma’nosida qo‘llagan.

Ma’lumki, -don affiksi narsa-buyum otlariga qo‘silib, ana shu narsa saqlanadigan predmetni ifodalaydi. Bu affiks okkazional otlarning yasalishida ham ishtirok etadi.

Adab bobida tanho o‘zgalar lof urmasun, oxir,
 Hazil o‘rnig‘a badnom-u haqoratdonimiz bordur.
 Muhandis bizda yo‘q, deb noraso so‘z demagil, notiq.
 Sharorat tog‘ida mino topib olg‘onimiz bordur.

Haqoratdonimiz so‘zini “haqoratli so‘zlar” ya’ni “hazil o‘rniga haqoratli so‘zlarimiz bor” ma’nosida qo‘llagan. (Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 1-jild)

O‘rin-joy otini yasovchi -xona affiksi ham Behbudiy asarlarida okkazional so‘zlarini hosil qilishda faol qo‘sishmchalardan biridir.

“Bolalar uchun tarbiyatxonai (pansiyon) ochmoq kerak. Va bu tarbiyatxonalar zamoncha ham milliy va diniy ruhda bo‘lishi kerakdur”. (Mahmudxo‘ja Behbudiy “A’molimiz yoinki murodimiz” maqolasi) Behbudiy maktablarga nisbatan

tarbiyatxonasi so‘zini qo‘llaydi.

Yana bir o‘rinda shifoxona so‘ziga nisbatan xastaxona so‘zini qo‘llaydi.

“...yana ikki olmon, ikki fransuz, bir itolyon, bir ingliz muntazam maktabi va bir fransuz xastaxonasi bor ekan.” .(Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”)

“Olami Islomning aksari madrasalari shunday xarob va hasharotxonadur.” (Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”) Bu o‘rinda hashorotlar ko‘pligi ma‘nosini kuchaytirish maqsadida ana shu atamani qo‘llaydi.

“Oshxona, taomxona, hammom, mashq va ijtimoxonalari boshqadur”. Ko‘pchilik, odamlar, to‘planadigan joyga nisbatan ana shu atamani qo‘llagan.

(Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar “Sayohat xotiralari”)

Okkazional mavhum otlar ham uchraydi. “Oradan so‘zsizlik uzoqqa cho‘zila bergach, qutidor Hasanalidan so‘radi.” (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

Yuqorida gapda Abdulla Qodiriy jimjilik ma‘nosini ifodalashda -lik affaksi orqali ravishdan mavhum ot yasagan.

“Qizlar ma‘nolik qilib yer ostidan Kumushka qaraydirlar. Majlisda bir xil ma‘yusiyat. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”) -iyat affksi orqali okkazional mavhum ot hosil qilingan. Yuqorida o‘rinda ma‘yuslik ma‘nosi ifodalangan.

“Qizlar ipka chizilg‘an guldek uy tevatagini olg‘anlar, buning ustiga yovoshliq, uychanliq ularning tuslariga ma‘naviy bir husn va jiddiyat berib, birga yuz husn qo‘shqan edi.” (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”) Bu gapda esa -at affiksidan foydalangan.

“Ertasi fotihaxonlar birlan ovora bo‘lib... Xullas kalom shulki, bu tashvishlar birlan xat qilishg‘a fursat tanglik qildi.” (Hamza, Xatlar) Ma’lumki, -xon shaxs oti yasovchi affiks hisoblanib,bu gapda ham fotihaxon so‘zini yasagan.

Abdulla Avloniyning okkazional so‘zlar yasashdagi o‘ziga xosligi shundaki, u o‘z okkazionallarida fors tilidan o‘zlashgan -on qo‘srimchasini ko‘p o‘rinlarda qo‘llagan. Ma’lumki, -on qo‘srimchasi bu fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ko‘plik ma‘nosini ifodalaydi.

“Butun islomiyon g‘aflatda, shaxsiylik ila mag‘rur,

Xayoliga keturmaydur sira asri saodatni.” (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild ”Shoir ila to‘ti”)

Berilgan misolda qo‘llangan islomiyon so‘zi muallif tomonidan musulmonlar ma‘nosida qo‘llagan. Bu o‘rinda sifatning otlashishi ro‘y beryapti, mazkur qo‘srimcha orqali sifatdan ot yasalgan o‘rinlar ham ko‘zga tashlanadi.

“Bo‘ynini egmas kishig‘a haqni bilgon nafs uchun,

Molin isrof aylamas olivjanobon nafs uchun.” (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild ”Iffatl iinsonlar”)

“Okkazionalizmlarning qo‘llanish chastotalalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, badiiy nutqda ot okkazionalizmlar eng faol. Miqdoriga ko‘ra, sifat okkazionalizmlar ikkinchi o‘rinda, fe‘l okkazionalizmlar uchinchi o‘rinda, boshqa turkum so‘zları esa keyingi o‘rinlarda turadi”[4]. Ko‘rinib turibdiki, ot okkazionalizmlar turkumiga ko‘ra ko‘p o‘rinlarda qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz.

“Siza arzim budur, ey shoiron, ishqiy nazm etmang,

Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan gapurmanglar!” (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild ”Gapurmanglar”)

Muhokama va natija. Kuzatishlar va tahlil qilingan materiallar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Avloniy -on qo‘srimchasi shaxs otlari tarkibida ko‘p o‘rinlarda qo‘llagan.

“Chiqdi boshlab “Sadoyi Turkiston”,

O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.” (A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild ”Jarina muhiblarina”)

“Johilon bilgaymu naf‘i-sudini, ey olimon,

Tobakay yaxshi-yomonga yetmagay idrokimiz?” (“(A.Avloniy. Tanlangan asarlar I jild ”Biz nima holdamiz”)

Yuqoridagi misollarda shoiron, do'ston, olimon so'zлari shoirlar, do'stlar, olimlar ma'nosida kelgan.

"Bu xabarlar xalq tomonidan juda oddiy, ortiqcha sovuqqonlik bilan qarshi olindilar. Bu voqi'aga hech kim ajabsinmadi va bunda favqulottaliq ko'rmadi. Xalq bunga haqli edi, chunki bunday tinchsizliklarni endi ko'ra-ko'ra juda ham o'rganib qolg'an." (A.Qodiriy "O'tkan kunlar") Tinchsizliklarni okkazionalizmi esa sifatning otlashishi natijasida hosil bo'lgan.

Yuqoridagi misolda favqulotda sifatiga ot yasovchi -liq affiksini qo'shish orqali favqulottaliq (yangilik) okkazionalizmi hosil bo'lgan.

Ahli majlis "to'g'ri topdi" adibbekning so'zini,

"To'g'ri aytgan" adibbek ham pilanglatdi ko'zini...

("Shamol nimadan paydo bo'ladur")

Bilamizki, -bek qo'shimchasi atoqli otlarga qo'shilib, o'ziga xos hurmat, erkalash ma'nosini ifodalaydi. Cho'lpon turdosh otlarda ham qo'llab, shakl yasovchi affikslardan ham okkazonallikni hosil qilgan.

Affiksatsiya usulida yasalgan sifat okkazionalizmlarni ham uchratamiz.

Vasvasalanishning o'rni yo'q, mundan so'ng ham sizning xayrixohona kengashlariningizga , ham vujudingizga muhtojman... (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

Hasanalining yuziga padarona tarahhum tusi kirib, keksalarga maxsus ohangdor bir tovush bilan bekning ustidagi og'ir yukni ola boshladi. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

"Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra mavzu'ni moziydan, yaqin o'tkan kundardan , tariximizning eng kirlig, qora kunlari bo'lgan keyingi "xon zamonlari" dan belguladum. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

Ravish okkazionalizmlarni, -ona affaksi bilan hosil qilingan okkazional so'zlarni Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida ko'p o'rindrarda uchratamiz. Bu affiks ma'lum harakatni holatini ifodalab keladi.

Xayrullo.Xo'sh! Choy va la'li keltirar, choy suzar, alar tanavvul aylar, Toshmurod kirar, salomsiz beadabona."(Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar "Padarkush")

"Domulla boy va Toshmurodg'a badbinona boqib, boshini solar". (Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlanganasarlar "Padarkush")

"Bu iqomatga mavt va manzilga xomushona bir karra kirildimi yana qaytmoq mumkin yo'q." (Tanlanganasarlar "Oqyolpog'ichlichinlixotun" hikoyasi)

"Chung'ichin u mahaldin mutaassufona ayrıldi."(Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar "Oq yolpog'ichli chinli xotun" hikoya)

"Oxiri, loilojon suratda ochlik sababidan Shukri posho Adriani taslim etmoqchi bo'ldi." (Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar "Sayohat xotiralari"). Ma'lumki, -lo qo'shimchasi arabcha inkorma'nosini ifodalovchi affiksdir.

Okkazionallar orasida fe'l yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan hodisalarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Jumladan, -la, -lan, -lash affikslari fe'l okkazionallarni yasashda sermahsul qo'shimchalardan biridir.

"Bizni kechirasiz,bek aka, – deb Rahmat uzr aytди, - vaqt sizni tinchsizladik.

Otabek ularga yuqorida joy ko'rsatar ekan, yoqimlik bir vaziyatda :

Tinchsizlamadingizlar, bilaks quvontirdingizlar, – dedi, – shahriringizga birinchi martaba kelishim bo'lg'ani uchun tanishsizlik, yolg'izliq meni juda zeriktirgan edi." (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

Yer-yer askar, to'p, miltiq va ozuqa hamda tog'lardek pichan anborlari.Turklarda endi ko'zini ochdi.Kafanini bo'ynig'a solib, o'lumi ko'zg'a olib, mahkam yerlashmoqdadur."(Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar "Sayohat xotiralari")

"Bu shahar kundan-kun obodlashiyur.(Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar "Sayohat xotiralari")

O'ris shaharlariga borib savdo qilg'uchilar Turkistonda juda oz hisobda bo'lib, chet ellarni ko'rgan Otabek majliska tansiqlandi. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")

Hujra orqa-o‘ngni ajratib bo‘lmasliq qorong‘ilandi. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”) Qarshisida ulturg‘an buvisining o‘tkan-ketkandan qilg‘an hikoyalariga erinibgina quloqn berar va ko‘nglini ochish uchun aytilgan qiziq so‘zlariga iljayish bilan javoblanar edi. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

“Ismi noshirki Obidu Mahmud,

Chiqlsa shoyad muvaffaqiyatlona” (Ibrat, “Tabrik Namangondin”)

Yuqorida misolda ham so‘z tarkibida buzilish, normadan chekinish holatini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa. Okkazional birliklar bu nutqiy hodisa, ularni muallif o‘z uslubidan, maqsadidan kelib chiqqan holatda yaratadi. Bunday birliklarning yasalishi erkin bo‘lganligi sababli muallifning imkoniyati yanada yuqori. Misollarni tahlilga tortish jarayonida okkazional birliklar ko‘proq affiksatsiya usulida hosil qilinganligini guvohi bo‘lamiz. Okkazionallarni hosil qilishda muallif uslubidan kelib chiqib affikslar tanlanadi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yhati

1. Горелкина А.В. Словообразовательные окказионализмы в мемуарных прозаических произведениях М.Цветаевой и А.Белого: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -М., 1999.

2. Степашкина Е.С. Окказиональнословов публицистике А.И. Солженицына: Автореф. дис. ... канд. Филол. наук.-М., 2014.

3. Тошлиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т., 1998.

4. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т., 2007.